HARBIY TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA EKSPERIMENTAL O‘QUV DASTURINI LOYIHALASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Sh.M. Alijonov

Osiyo xalqaro universiteti

Pegagogika yo ‘nalishi 2-bosqich magistranti

T.X.Olimov

Turon fanlar akademiyasi faxriy a’zosi, akademik,

Osiyo xalqaro universiteti professori,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Mazkur tezisda harbiy xizmatga tayyorlovchi ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan eksperimental o‘quv dasturining mazmuni, metodologik asoslari hamda tarkibiy tuzilishi tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyati, Termiz shahri MMTB 1-sonli umumiy o‘rta ta'lim maktabining 60 nafar 10-11-sinf o‘quvchisini harbiy xizmatga tayyorlovchi pedagogik jarayon tanlangan. Tadqiqot davomida mavjud o‘quv dasturlarining nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilib, amaliy mashg‘ulotlar ulushining yetarli emasligi, simulyatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, axborot-kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga ajratilgan vaqtning kamligi hamda baholash tizimining kompetensiyaviy model talablariga to‘liq javob bermasligi aniqlangan.[1] Mazkur kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan eksperimental dastur to‘rt modul asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning mazmuni harbiy-amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, harbiy ta'lim, eksperimental dastur, harbiy-amaliy kompetensiya, modul, simulyatsiya, baholash.*

Kirish. Harbiy ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichi ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Tadqiqot davomida amaldagi o‘quv dasturlarining mazmuni va amaliy holati tahlil qilinib, ularning ayrim jihatlari zamonaviy harbiy tayyorgarlik talablariga to‘liq javob bermasligi aniqlangan. Jumladan, amaliy mashg‘ulotlarning ulushi yetarli emasligi, simulyatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarining cheklanganligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ajratilgan vaqtning kamligi hamda baholash tizimining kompetensiyaviy model bilan to‘liq uyg‘unlashmaganligi eksperimental dastur ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Harbiy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-pedagogik asoslari horijda Abbe A. (2021), Reigeluth Charles M., Bell Herbert H. (2014), Fletcher J.D., Chatelier P.R., Raven J. **(**1984) va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.[2]

MDH davlatlarida ushbu mavzu bilan Доломанюк Л.В. (2011), Калашников В.Л., Баузина Е.Н., Оксюковская В.Н. (1999), Леницкий К.С. (2015), Petrachkov O., Kyslenko D., Mykhaylov V., Shostak R., Polyvaniuk V. (2024) va boshqalar shug‘ullangan.[3]

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda harbiy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-pedagogik asoslari Umarov I.O. (2025), Islamova M.Sh. (2023) , Axmedov O.G'. , Алимардонов З.Ш. (2016) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.[4]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy manbalarni tahlil qilish jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil va sintez qilish metodi; mavzuga oid xorijiy va mahalliy manbalarni qiyosiy tahlil qilish metodi; mavjud pedagogik konsepsiyalarni umumlashtirish va tizimlashtirish metodi.

Tahlil va natijalar. Mazkur muammolarni ilmiy asoslangan holda bartaraf etish maqsadida kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga mos eksperimental o‘quv dasturi ishlab chiqilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyati Termiz shahri MMTB 1-sonli umumiy o‘rta ta'lim maktabining 60 nafar 10–11-sinf o‘quvchisidan iborat guruh tanlangan bo‘lib, dastur aynan ushbu guruhda sinovdan o‘tkazilgan.

Eksperimental dasturni ishlab chiqishda R.Tayler tomonidan ilgari surilgan o‘quv dasturini loyihalash konsepsiyasi metodologik asos sifatida qabul qilingan.[5] Mazkur yondashuvga ko‘ra, har qanday o‘quv dasturi ta'lim maqsadi, o‘quv tajribasi, uni tashkil etish usullari hamda natijalarni baholash mezonlarini o‘zaro uyg‘un holda belgilashi zarur. Ushbu nazariy yondashuv tadqiqot doirasida harbiy-amaliy kompetensiyalarni shakllantirish nuqtai nazaridan qayta talqin qilinib, eksperimental dastur tuzilmasining asosini tashkil etgan.

Eksperimental dasturning asosiy maqsadi harbiy xizmatga tayyorlovchi ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish orqali bilim-nazariy, amaliy-harbiy, psixologik-ijtimoiy hamda etik-ma'naviy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishdan iborat.[6] Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, raqamli boshqaruv va aloqa vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish, simulyatsion texnologiyalarni keng qo‘llash, kompetensiyaviy baholash tizimini ishlab chiqish hamda psixologik va ma'naviy tayyorgarlikni kuchaytirish vazifalari belgilangan.

Eksperimental dastur to‘rt modul asosida shakllantirilgan bo‘lib, ular bir-birini izchil to‘ldiruvchi tizim sifatida loyihalashtirilgan.[7] Birinchi modul harbiy-nazariy bilimlarni shakllantirishga xizmat qilsa, ikkinchi modul amaliy-taktik tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan. Uchinchi modul raqamli jangovar boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi, to‘rtinchi modul esa psixologik hamda ma'naviy-axloqiy tayyorgarlikni mustahkamlashga xizmat

qiladi. Bunday tuzilma nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatning uzviy bog‘liqligini ta'minlash imkonini beradi.

• Eksperimental dastur tarkibidagi modullar o‘zaro uzviy bog‘langan holda tashkil etilgan bo‘lib, ularning har biri ma'lum kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Birinchi modul harbiy-nazariy bilimlarni egallashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ikkinchi modul harbiy-amaliy tayyorgarlikning asosiy qismini tashkil etadi. Mazkur modul doirasida dala mashg‘ulotlari, taktik o‘yinlar, jismoniy tayyorgarlik hamda simulyatsion mashg‘ulotlar tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. Uchinchi modul zamonaviy harbiy faoliyatda muhim o‘rin tutayotgan geoinformatsion tizimlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari hamda raqamli aloqa texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. To‘rtinchi modul esa stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish, jamoada ishlash, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur modullar ketma-ket emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi parallel tizim sifatida tashkil etilganligi ularning integratsiyalashgan xarakterini namoyon etadi.[8]

Eksperimental dastur umumiy hisobda 720 soatni tashkil etadi. Shundan 432 soati amaliy mashg‘ulotlarga ajratilgan bo‘lib, bu umumiy o‘quv yuklamasining 60 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Tadqiqotda ushbu ko‘rsatkich amaldagi an'anaviy dasturlardagi amaliy mashg‘ulotlar ulushidan sezilarli darajada yuqori ekani ta'kidlanadi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning natijaga va amaliy faoliyatga yo‘naltirilganligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi.

Eksperimental dastur mazmuni faqat o‘quv fanlari hajmini o‘zgartirish bilan cheklanmaydi. Unda harbiy tayyorgarlikning mazmuni zamonaviy qurolli kuchlar faoliyatining ehtiyojlaridan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqilgan. Xususan, amaliy-taktik mashg‘ulotlarda real xizmat vazifalariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan sharoitlarni yaratish, simulyatsion texnologiyalardan foydalanish

hamda o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy metodik yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv modulining alohida ajratilishi zamonaviy harbiy boshqaruv tizimlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tobora ortib borayotgan ahamiyati bilan izohlanadi.

Eksperimental dasturni ishlab chiqishda nazariy bilimlar va amaliy faoliyatning uzviy bog‘liqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yondashuv natijasida o'quvchilar harbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar davomida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa bilimlarning mustahkamlanishi bilan bir qatorda ularni real vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarining ham shakllanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotda aynan nazariya va amaliyot integratsiyasi kompetensiyaviy yondashuvning eng muhim talabi sifatida baholangan.[9]

Shunday qilib, ishlab chiqilgan eksperimental o‘quv dasturi kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida shakllantirilgan yaxlit pedagogik model hisoblanadi. Dastur tarkibidagi modullar, ularning mazmuni, o‘quv yuklamasining qayta taqsimlanishi hamda amaliy mashg‘ulotlar ulushining oshirilishi harbiy xizmatga tayyorlash sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur model keyingi bosqichlarda tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi uchun ilmiy-metodik asos vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tahlillar eksperimental o‘quv dasturi kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida ishlab chiqilganligini ko‘rsatadi. Dastur to‘rt moduldan iborat bo‘lib, harbiy-nazariy bilimlar, amaliy-taktik tayyorgarlik, raqamli boshqaruv hamda psixologik-ma'naviy tayyorgarlikni o‘zaro uyg‘un holda rivojlantirishni nazarda tutadi. Amaliy mashg‘ulotlar ulushining 60 foizdan ortiqqa yetkazilishi, simulyatsion texnologiyalarni qo‘llash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilishi eksperimental dasturning asosiy ustunliklarini tashkil etadi. Shu bois mazkur model harbiy xizmatga tayyorlovchi ta'lim tizimini kompetensiyaviy asosda takomillashtirishning ilmiy-metodik modeli sifatida e'tirof etiladi. Ishlab chiqilgan mazkur eksperimental dastur aynan tadqiqotning obyekti bo‘lgan Surxondaryo viloyati, Termiz shahri MMTB 1-sonli umumiy o‘rta ta'lim maktabining 60 nafar 10-11-sinf o‘quvchisini harbiy xizmatga tayyorlovchi pedagogik jarayon negizida shakllantirilgan bo‘lib, keyingi bosqichda shu o‘quvchilar guruhida amaliy sinovdan o‘tkazilishi ko‘zda tutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1]. Toshpanov D.Yu. Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muammolari // Mudofaa va xavfsizlik. – 2021. – No 3. – B. 44–52.

[2]. Abbe A. Evaluating Military Cross-Cultural Training Programs. – 2021.; Army Transformation: Hearing before the House Committee on Armed Services, 108th Cong. (2004) (statement of Maj Gen Robert H. Scales Jr., USA [Ret]).; Defense Planning Guidance. – Washington, DC: Department of Defense, 2006–11; Quadrennial Defense Review Report. – Washington, DC: Department of Defense, 2006.; Reigeluth Charles M., Bell Herbert H. Paradigm change in military education and training // Educational Technology. – May-June 2014. – P. 52–57. ; Fletcher J.D., Chatelier P.R. An Overview of Military Training. – Institute for Defense Analyses, Alexandria, Virginia, 2000–2002. ; Raven J. Competence in

Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H.K. Lewis, 1984. – 251 p.

[3]. Доломанюк Л.В. Формирование военно-профессиональной компетенции будущих офицеров: автореф. дисс. канд. пед. наук. – Казань, 2011. – С. 3.; Калашников В.Л., Баузина Е.Н., Оксюковская В.Н. Высшее образование в современной России // Образование в регионах России и странах СНГ. – 1999. – № 9–10. – С. 33–39.; Леницкий К.С. Организационно-педагогическое обеспечение мониторинга качества обучения будущего специалиста в военном вузе: дисс. канд. пед. наук. – Омск, 2015. – С. 28–29.; Petrachkov O., Kyslenko D., Mykhaylov V., Shostak R., Polyvaniuk V. Motivation of military specialists to engage physical training during the legal regime of martial law // Journal of Physical Education and Sport (JPES). – Vol. 24, issue 6, Art 165, June 2024. – P. 1457–1464.

[4]. Umarov I.O. Implementation of a competency-based approach in military education and opportunities for developing students' acquired skills and knowledge // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). – Vol. 8, Issue 09, September 2025. DOI: 10.5281/zenodo.17140951.; Islamova M.Sh. Harbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik jihatlari: monografiya. – Toshkent: O'zb. Res. MV CHOTQMBY bosmaxonasi, 2023. – 152 b.; Axmedov O.G'. O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida harbiy va milliy qadriyatlar // New Renaissance International Scientific Journal. – Volume 2, Issue 12. – P. 95–97.; Алимардонов З.Ш. Ҳарбий хизматчиларнинг касбий компетентлигини тарбиялаш механизмларини илмий-педагогик такомиллаштириш // Таълим технологиялари. – 2016. – №8. – Б. 27–32.

[5]. Tyler R.W. Basic Principles of Curriculum and Instruction. – Chicago: University of Chicago Press, 1949. – 128 p.

[6]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-yanvardagi PF-5618-son farmoni «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy ta'limini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida». – Toshkent, 2019.

[7]. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. – New York: Wiley, 1993. – 372 p.

[8]. Mirzo'yev N.M. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. b.– 164

[9]. Campbell D.T., Stanley J.C. Experimental and Quasi-Experimental Designs for Research. – Boston: Houghton Mifflin, 1963. – 84 p.